

OILA VA TARBIYANING YOSH AVLOD SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Majidov Nabi Mahmudovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy-ijodiy maqolada oila institutining jamiyat taraqqiyotidagi strategik o'rni, tarbiya jarayonining yosh avlod shaxs sifatida shakllanishiga ko'rsatadigan ijtimoiy, ma'naviy va psixologik ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Oila muhitining barkamol shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, zamonaviy ijtimoiy sharoitda oilaviy tarbiya oldida turgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining yosh avlod kamolotidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Oila, arbiya, yosh avlod, ma'naviyat, ijtimoiylashuv, shaxs kamoloti, qadriyatlar, jamiyat.

Har qanday jamiyatning kelajagi bevosita yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarbiya masalasi davlat va jamiyat miqyosida eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonining boshlanish nuqtasi esa oila sanaladi. Oila inson hayotida ilk va eng muhim ijtimoiy institut bo'lib, unda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va hayotiy qadriyatlari shakllana boshlaydi. Bugungi globallashuv davrida, axborot oqimi kuchaygan bir sharoitda oilaning tarbiyaviy vazifasi yanada ortmoqda. Chunki yoshlar ongiga turli g'oyalar, qarashlar va madaniy ta'sirlar tezkorlik bilan kirib kelmoqda. Bunday sharoitda oila yosh avlod uchun ma'naviy tayanch, mustahkam qalqon vazifasini bajarishi lozim. Mazkur maqolada aynan oila va tarbiyaning yosh avlod shakllanishidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan keng yoritiladi.

1. Oila tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati: Oila — nikoh, qarindoshlik va mas'uliyat asosida birlashgan kichik ijtimoiy guruh bo'lib, jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Oila jamiyatning biologik davomiyligini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga uzatish vazifasini ham bajaradi.

Sotsiologik va pedagogik tadqiqotlarda oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi ta'kidlanadi:

- Reproduktiv (avlodni davom ettirish);
- Tarbiyaviy (shaxsni shakllantirish);
- Iqtisodiy (moddiy ta'minot);
- Psixologik (mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlash);

- Ijtimoiylashuv (jamiyat qoidalariga moslashtirish).

Aynan tarbiyaviy funksiya oilaning eng muhim vazifasi bo'lib, u yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati: Tarbiya — bu shaxsda ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan sifatlar, axloqiy me'yorlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Tarbiya nafaqat ta'lim muassasalarida, balki kundalik hayotda, avvalo oilada amalga oshiriladi.

Oiladagi tarbiya quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Axloqiy tarbiya;
- Ma'naviy tarbiya;
- Mehnat tarbiyasi;
- Stetik tarbiya;
- Jismoniy tarbiya.

Ushbu tarbiya turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

3. Oilaviy muhit va shaxs kamoloti: Oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ota-onaning o'zaro munosabati, farzandga bo'lgan munosabat uslubi, oiladagi muloqot madaniyati yosh avlodning kelajakdagi xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mehr-muhabbatga asoslangan, adolatli va talabchan oilada voyaga yetgan bola o'ziga ishonchli, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanadi. Aksincha, nizoli va befarq muhitda tarbiyalangan bolalarda ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi: Oilaviy tarbiya orqali milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlar yosh avlod ongiga singdiriladi. Kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik kabi fazilatlar, avvalo, oilada shakllanadi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar — inson huquqlari, tinchlik, bag'rikenglik va hamkorlik g'oyalari ham oilaviy tarbiya orqali yosh avlodga yetkaziladi. Bu esa ularning global jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

5. Zamonaviy sharoitda oilaviy tarbiya muammolari hamda, bugungi kunda oilaviy tarbiya jarayoni bir qator muammolarga duch kelmoqda. Jumladan:

- Ota-onalarning bandligi;
- Axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri;
- Tarbiya masalasida pedagogik savodxonlikning yetishmasligi;
- Oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi.

Mazkur muammolar yosh avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ota-onalar zamonaviy tarbiya usullarini o'rganishi, farzand bilan ochiq va ishonchli muloqot o'rnatishi muhimdir.

6. Oila, ta'lim muassasasi va jamiyat hamkorligi: Yosh avlod tarbiyasi faqatgina oilaning vazifasi bo'lib qolmasdan, ta'lim muassasalari va jamiyat bilan hamkorlikda olib borilishi zarur. Maktab, mahalla va jamoat tashkilotlari oilaviy tarbiyani qo'llab-quvvatlovchi muhim institutlardir. Ushbu hamkorlik natijasida yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va faol hayotiy qarashlar shakllanadi. Bolalar bizning kelajagimizdir. Ular har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy hayotda, mehnatda faol ishtirok etishga tayyor kishilar bo'lib yetishishlari lozim. Yosh avlodni ilk yoshligidan boshlab tarbiyalash, uning jismoniy va ma'naviy tomondan garmonik tarzda rivojlanishini ta'min etish eng muhim vazifalardan biridir. Shunday ulug' va mas'uliyatli vazifani bajarishda oilaning o'ziga xos muhim o'rni mavjuddir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Oilaning tarbiyadagi o'rnini amaliy belgilab beruvchi, jahon jamiyatdagi va andozalariga mos "Oila Kodeksi" mavjud. Oilaning tarbiyachilik roli har qanday tizim yoki tuzilmaga nisbatan har doim yuqoridir va shu sababli ham oila pedagogikasi va psixologiyasining yangi tadqiqot yo'nalishlari yuzaga kelmoqda. Olingan natijalar oila tarbiyasini mazmun va metodik jihatdan takomillashtirish ishida muhim ahamiyatga egadir. Inson bolasi onadan ma'naviy nuqsonsiz tug'iladi. U voyaga yetar ekan, ulg'ayar ekan insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirib boradi. Bolada qanday mayllar, qiziqish va odatlar paydo bo'lishi, qanday xarakter sifatleri rivojlanishi kattalar uni nimaga o'rgatishiga, ulardan nimalarni talab qilishiga, ularning hayot tarzini, faoliyatini qanday uyushtirishlariga bog'liq bo'ladi. Bola uchun eng yaxshi va birinchi tarbiyachi ota-onadir. Ota-onaning o'zaro, o'zgalar bilan, bolalar bilan, tevarak-atrof bilan munosabati bola ongida o'chmas iz qoldiradi. Demak, ota-ona va tarbiyachilarning bola o'sishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etar ekan.

Bola — yaxlit va juda murakkab organizm. Uning jismoniy holati — uning xulq-atvoriga, kayfiyatiga, xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan tarbiyachilar bolaning xulq-atvoridagi bunday o'zgarishlarga e'tibor bermaydilar, ularni o'z talablarini bajarishga majbur qiladilar. Bu esa bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanish — murakkab, qarama-qarshi jarayon. U bir tekis bormaydi. Rivojlanishdagi bunday nomutanosiblik ma'lum darajada bola hayotining turli davrlarida uning organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Bolalar odatda juda faol bo'ladilar, ular o'zlarida doimo faol harakat qilishga ehtiyoj sezib turadilar. Bolaning bunday aktivligi, tevarak-atrofdagi narsalar, voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvur hosil qilishga, ota-ona, foydali odatlarni egallash hamda ularni mustahkamlashga olib keladi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat natijasida bolaning aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi takomillashib boradi.

Psixologlar bolalarning o'z ixtiyori bilan aktiv faoliyatda bo'lishi jarayonida ularning xotirasi va kuzatuvchanligini, diqqatini va tafakkurini, his-tuyg'ulari va

xususiyatlarini shakllantirish va boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi, deb hisoblaydilar.

Shuni tarbiyalanuvchilarda bu jarayon ko'pincha tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ba'zi tarbiyachilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligining yetarli emasligi, muloqot-munosabatlardagi bir xillik, kun tartibining bir xil takrorlanishi ham bola psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida bola imkoniyatlarini chegaralaydi, bir qolipga solib qo'yadi. Buning natijasida bolada hafsalasizlik, beparvolik, xudbinlik, mas'uliyatsizlik kabi sifatlar shakllanib boradi.

"Mehribonlik uyi"da tarbiyalanayotgan ba'zi bolalar kattalar bilan muloqotga kirishishda qiynalishadi. Bolalar kattalarni o'zlariga nisbatan e'tiborliroq, mehribonroq bo'lishini istaydilar. Ularning ehtiyojlarining qondirilmasligi, xulq-atvorning qonun-qoida va tartiblarga rioya qilinishiga qaratilganligi ularning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish — oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitni yuzaga keltirishga, bola tarbiyasining to'g'ri olib borilishiga, bolalarda ijobiy fazilatlarni va individual psixologik xususiyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Qaramog'isiz qolgan bolalar bu sifatlarni kimdan o'rganadi, kimga taqlid qiladi?!

Bola hayotini, unga qo'yiladigan talablarni, bolaga ta'sir etish tadbirlari bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, ular bolaning o'zida ichki intilish uyg'otsin, u o'zini tuta bilishga, mustaqil bo'lishga o'rgatsin. Bu ishlarni amalga oshirishning shartlari sifatida quyidagilarni olish mumkin:

- Ota-ona (tarbiyachi) muayyan javob reaksiyasi hosil qiluvchi ta'sir tadbirlarini tanlashi zarur.

- Ota-ona (tarbiyachi) bolalarni bir xil harakatlarni bajarishga o'rgatar ekan, bolani tarbiyalash ishi faqatgina o'rgatish, rom qilish, qoyil qolishgagina aylanib qolmasligi uchun mashqlarning formasi va mazmunini o'zgartirib turishi kerak.

- Ota-ona shaxsining ayrim irodasini rivojlantirish, "Bola uyi", "Mehribonlik uyi"da tarbiyalanuvchilarda alohida ta'kidlash joizki, ular muloqotda bo'lishni istashadi... Muloqotda bo'lish ularga ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona (tarbiyachi) bolaning qiliqlarini, xatti-harakatlarini, javoblarini ma'qullash yoki qorarlashning shunday vositalarini tanlashi kerakki, ular bolaning o'sishi uchun ahamiyatga ega bo'lsin.

- Bolada biror malaka va odatni shakllantirish uchun bir xil ta'sir choralarini takrorlash zarur bo'lib qolsa, bola shaxsini muvaffaqiyatli shakllantirish va rivojlantirish uchun bolaga qo'yiladigan talabni muntazam oshirib borishi zarur.

- Ota-ona (tarbiyachi) tomonidan bola rivojlanishiga rahbarlik qilishda uning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Bolaning rivojlanishi ota-ona (tarbiyachi)ning o'zida mavjud bo'lgan fikrlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bolalarga shunchaki o'tkazish emas, balki hamma narsani bolaning o'zi o'zlashtirib olishi va mustahkamlashidir. Bu vaqtda ota-ona (tarbiyachi) rahnamolik, boshlo'vchilik vazifasini o'taydi.

Shu zaylda oila insoniyatning uzluksizligini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani: farzandni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yadi.

Shunday muhim maqsadni o'z zimmasiga olgan ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turadi:

- Bola hayotining birinchi kunlaridanoq, unga normal o'sishi va rivojlanishi hamda uning xulqini shakllanishiga yordam beruvchi rang-barang ijobiy odatlarni tarbiyalash;
- Bolalarda axloq madaniyatini shakllantirish, ularni umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilgan holda uyda, bog'chada, ko'chada, jamoat joylarida tarbiyalash;
- Nutq madaniyatining, ya'ni odob bilan gaplashish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- Odamlarga el bo'lishlik, xushmuomalalik, jonkuyarlik, vazminlik, odoblilik, kamtarlik, sezgirlik, ko'pchilikning manfaatlari bilan hisoblashish madaniyatini tarbiyalash;
- Bolada oqilona ehtiyojlarni shakllantirish va burch hissini tarbiyalash;
- Xalqimiz tarixi, uning ma'naviy va madaniy meroslarini har tomonlama chuqur o'rganish va ularga hurmat tuyg'usini tarbiyalash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila inson hayotining abadiyligini, avlodlarning uzluksizligini ta'minlaydigan, qadimiy urf-odatlarimiz va boy madaniy merosimizni saqlaydigan muqaddas tarbiya o'chog'i ekanligini e'tirof etishimiz zarur. Aynan oilada insonning dastlabki axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlarga hurmat, mehnatsevarlik, insonparvarlik va mas'uliyat hissi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, oila va tarbiya yosh avlod shakllanishining asosiy poydevori hisoblanadi. Oiladagi sog'lom muhit, ongli va mas'uliyatli tarbiya jamiyat taraqqiyotining muhim kafolatidir. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun oilani mustahkamlash, ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Oilaviy tarbiya — farzandlarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiy hayotga faol va ongli tarzda tayyorlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ota-ona farzandlariga nafaqat mehr-oqibat va g'amxo'rlik ko'rsatishi, balki ularning bilimga, odob-axloqqa, mehnatga va insoniylikka intilishlarini qo'llab-quvvatlashi kerak. Chunki har bir bola — bu kelajak jamiyatning yetuk vakili, millat taraqqiyotining garovidir. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sifatida e'zozlab kelingan. Zero, har bir insonning ma'naviy yuksalishi, axloqiy to'g'riligi va ijtimoiy faolligi avvalo oilaviy tarbiyaning

samaradorligiga bog‘liqdir. Shu bois, oila farovonligi — milliy farovonlikning asosiy kafolati hisoblanadi. Oilaning barkamolligi — jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va ijtimoiy birdamligining asosi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Abdullaeva Sh. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. G‘afforov O. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Davletshin M. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2015.
6. Inoyatov U. Ma’naviy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
8. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi materiallari.
9. UNESCO. Education and Family Values. – Paris, 2019.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.